



INSON KAPITALINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH  
DARAJASINI YAXSHILASH

Rashidov Abror Ro'zimurod o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti  
Jizzax filiali "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasida assistenti

[rashidov.a.r1991@gmail.com](mailto:rashidov.a.r1991@gmail.com)

Umurzaqova Shahzoda

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali  
Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu taqdim etilayotgan tezisdagi hozirgi global rivojlanayotgan bir pallada butun dunyo hamjamiyatida o'rin olgan tushunchalar "Inson kapitali" va "aholi turmush darajasi" haqida fikr yuritilgan va ular haqida ba'zi insonlar fikrlari keltirilgan va ikki tushuncha o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Inson kapitali, inson, jamiyat, ehtiyoj, aholi, aholi turmush darajasi, daromad, qarz.

Inson kapitali (ing. human capital) — bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko'nikmalar to'plami. Inson potensialini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida, inson kapitali aynan daromadlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi, shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta'lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to'plangan bilimlari, ularni amalda qo'llashi va mahoratini o'z ichiga oladi[1].

Inson kapitali – bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi[2].

Inson kapitalini rivojlantirishning ayrim afzalliklari jamlanib, sarmoya kiritilayotgan avlod bilangina cheklanib qolmaydi. Masalan, onaning farzandning perinatal parvarishi haqidagi bilimni boyitish bolalarning go'dakligidanoq sog'lig'ini yaxshilashga xizmat qiladi.

Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, inson kapitaliga individual investitsiyalar umumlashtirilganda, turli mamlakatlarda inson kapitaliga kiritilgan investitsiya bilan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar o'rtasidagi tafovut 10 foizdan 30 foizgacha bo'lishini ko'rsatdi[3].

Inson kapitaliga sarmoya kiritishdan jamiyat ham katta manfaat ko'radi. Uzluksiz maktab ta'limi turli jinoyatlar sodir etilishi ehtimolini kamaytiradi.

Inson kapitali haqida ko'plab olimlarning fikrlari hamda olib borgan izlanishlari mavjud. Keling ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Masalan, G.Bekker fikricha, "inson kapitali" – bu tug'ma qobiliyatlar va olingan bilim, ko'nikma va motivatsiyalar to'plami bo'lib, ulardan (korxonada yoki jamiyatning shaxsi darajasida) to'g'ri foydalanish natijasida daromadni oshirishga erishiladi. "Inson kapitali" har bir aniq shaxs tomonidan shakllantiriladi va u tirik inson shaxsiyatidan ajralmasdir. Ko'rinib turibdiki, dastlab, inson kapitali deganda, faqat insonga va uning mehnat



qobiliyatiga xos bo'lgan – ta'lim va kasbiy mahoratni oshiradigan sarmoyalar yig'indisi tushunilgan[4]. Hozirgi davrga kelib esa, inson kapitali tushunchasiga e'tibor yanada kuchaydi va ushbu kontseptsiyani rivojlantirishga jiddiy urg'u berilmoqda. Keng ma'noda inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanish, jamiyat va oila taraqqiyotining intensiv ishlab chiqaruvchi omili, shu jumladan ishchi kuchining o'qimishli qismi, bilimlar, intellektual va boshqaruv ishlari vositalari, yashash joylari va ish faoliyati bo'lib, samarali va oqilona ishlashini ta'minlaydi. Inson kapitali tabiiy resurslar yoki to'plangan boylikdan ko'ra muhimroq bo'lgan eng qimmatli resursdir[5].

“Aholi turmush darajasi” muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, murakkab, ko'pqirrali jarayonni aks ettiradi. Shuning uchun ham aholi turmush darajasini aks ettirish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- + aholining daromadlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;
- + aholining xarajatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;
- + daromadlarini differensiyallash, kambag'allik darajasi va uning chegarasi singari ko'rsatkichlar kiradi[6].

“Turmush darajasi” tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini rivojlantirishda Birlashgan millatlar tashkiloti sezilarli hissa qo'shdi. 1960 yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari haqida hisobot tayyorladi[7]. Bu keng qamrovli tizimni yaratish yo'lidagi dastlabki qadam edi. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko'rsatkichlarining oxirgi versiyasi 1978-yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan[8].

Xulosa o'rnida qisqa va tushunarli qilib aytganda, aynan hozirgi zamonda ishchi-xodimlarning intellektual, ijodiy qobiliyatlari, ijodkorligi tashkilotning asosiy raqobatdosh ustunliklari sifatida qaraladi[9]. Xodimlarni boshqarish funksiyalari nafaqat xodimlarning ushbu afzalliklarini rivojlantirishni, balki iqtidorli xodimlarni jalb qilishni ham o'z ichiga oladi, bu menejmentda iste'dodlarni boshqarish kabi yo'nalishni keltirib chiqardi[10]. Shunday qilib, inson kapitali iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omili va resursi bo'lib, korxonalarining raqobatbardoshligini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega[11]. Boy bilim, yuksak rivojlangan salohiyat, yuksak intellekt va ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs sarmoyaning alohida turiga aylanadi. Inson kapitali uning tashuvchisi – tirik insondan ajralmas.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://yuz.uz/uz/news/inson-kapitaliga-etibor--asosiy-vazifa>
2. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. Ibrogimov Sherzodbek Halimjon ogli.(2021). In Development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Conference Zone (pp. 123-128).
3. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. (2021, December). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. In Conference Zone (pp. 123-128).



4. Xolmirzayev, A. X. (2021). RISK FACTORS AND UNCERTAINTIES IN THE ECONOMY. *Мировая наука*, (2), 24-27. 10. Юлдашев, К. М., & Холмирзаев, А. Х. (2019). Осуществление реализации механизма частного партнерства в Узбекистане. *Молодой ученый*, (51), 435-437.
5. Rashidov A., Ernafas o'g'li S. K. MAMLAKATIMIZDA ISHSIZLIK SABABLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH //IQRO JURNALI. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 284-288.
6. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. O 'ZBEKISTONING KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING O 'RNI //IQRO JURNALI. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 166-176.
7. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. MAMLAKATIMIZNING XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH //IQRO JURNALI. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 30-34.
8. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOY SIYOSATI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 141-147.
9. Abdusattarovich M. B. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 117-119.
10. Akramovich N. A. et al. PROBLEMS AND SOLUTIONS IN WORKING WITH THE POPULATION IN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 25-30.
11. Alijon N., Sherzod Y. FACTORS OF INSURANCE ACTIVITY IMPLEMENTATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 20-24.
12. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF "MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 1. – С. 209-210.
13. Цой М. П., Худояров Р. Т. МАЛЫЙ И СРЕДНИЙ БИЗНЕС В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 132-136.
14. Muxtarov B. ANALYSIS OF THE DYNAMICS OF POPULATION INCOME GROWTH IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 30-39.
15. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. O 'ZBEKISTONDA PUL-KREDIT TIZIMI VA UNI MODERNIZATSIYALASH YO 'LLARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 251-258.